



## PEDAGOGIKA FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA PEDAGOGIK QOBILIYAT O‘RNI

*Sharisabz davlat pedagogika instituti 1-kurs 5.25-guruh talabalari*

*G‘aniyeva Shoira , Mirkomilova Yulduz, Esanova Aziza,*

*Baxodirova Mohinur*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlashda pedagogik qobiliyatlarning o‘rni keng yoritiladi. O‘qituvchining kasbiy mahorati, didaktik, kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlari ta’lim sifati hamda o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari pedagogik qobiliyatlar o‘qituvchi faoliyatining ajralmas qismi ekanligini va ular ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik faoliyat, pedagogik qobiliyat, ta’lim samaradorligi, didaktik qobiliyat, kommunikativlik, pedagogik mahorat.

**Abstract.** This article examines the role of pedagogical abilities in ensuring the effectiveness of pedagogical activity. The professional competence of teachers, including didactic, communicative, and organizational abilities, and their impact on the quality of education and students’ personal development are analyzed scientifically. The results of the study show that pedagogical abilities are an integral part of a teacher’s professional activity and play a crucial role in improving educational effectiveness.

**Keywords:** pedagogical activity, pedagogical abilities, educational effectiveness, didactic ability, communicative skills, pedagogical competence.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается роль педагогических способностей в обеспечении эффективности педагогической деятельности.



Научно анализируется влияние профессионального мастерства учителя, его дидактических, коммуникативных и организационных способностей на качество образования и развитие личности учащихся. Результаты исследования показывают, что педагогические способности являются неотъемлемой частью профессиональной деятельности учителя и играют важную роль в повышении эффективности обучения.

**Ключевые слова:** педагогическая деятельность, педагогические способности, эффективность обучения, дидактические способности, коммуникативные навыки, педагогическое мастерство.

**Kirish.** Hozirgi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy mahoratni talab etmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchining shaxsiy sifatlari va pedagogik qobiliyatlariga bog'liq. Zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchini mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga va hayotiy muammolarni hal etishga o'rgatuvchi shaxsdir. Shu sababli pedagogik qobiliyatlar masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Pedagogik qobiliyatlar — bu o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilar bilan muloqot qilish va ularning bilimni oshirishga xizmat qiluvchi psixologik va kasbiy xususiyatlar majmuasidir.

## 2. TADQIQOT METADOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqot pedagogik faoliyat samaradorligida pedagogik qobiliyatlarning o'rnini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan bo'lib, unda bir qator nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini pedagogika, psixologiya va ta'lim nazariyasiga oid ilmiy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida, avvalo, muammo yuzasidan mavjud ilmiy-adabiyotlar chuqur tahlil qilindi. Bu orqali pedagogik qobiliyat tushunchasining mazmuni, uning



tarkibiy qismlari hamda pedagogik faoliyat samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Ilmiy manbalarni tahlil qilish metodi tadqiqotning nazariy asosini shakllantirishga xizmat qildi.

Shuningdek, pedagogik kuzatuv metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod orqali o'qituvchilarning dars jarayonidagi faoliyati, o'quvchilar bilan muloqoti, darsni tashkil etish usullari va pedagogik qobiliyatlarning amaliy namoyon bo'lishi o'rganildi. Kuzatuv natijalari pedagogik qobiliyatlarning real ta'lim jarayonidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi. Bundan tashqari, taqqoslash metodi yordamida turli darajadagi pedagogik qobiliyatga ega o'qituvchilarning faoliyati o'rganilib, ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri solishtirildi. Ushbu metod orqali pedagogik qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi bilan o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik aniqlashtirildi. Tahlil va sintez metodlari yordamida olingan ma'lumotlar umumlashtirildi va tizimlashtirildi. Bu esa pedagogik qobiliyatlarning asosiy turlari va ularning samaradorlikka ta'sirini aniq ifodalash imkonini berdi. Umumlashtirish metodi orqali esa tadqiqot natijalari asosida xulosalar chiqarildi. Mazkur metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab, pedagogik qobiliyatlarning pedagogik faoliyat samaradorligidagi o'rnini har tomonlama yoritishga xizmat qildi.

### 3.NATIJARLAR


#### 1. Pedagogik qobiliyat tushunchasi va mohiyati

Pedagogik qobiliyat o'qituvchining o'z kasbiga xos bo'lgan muhim sifatlaridan biridir. Bu qobiliyatlar o'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, bilim berish va tarbiyalash jarayonini samarali tashkil etishiga yordam beradi.



## PEDAGOGIK QOBILIYATLAR

Pedagogik qobiliyatlar – bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarga bilim berish, ularni rivojlantirish va tarbiyalashga imkon beruvchi individual-psixologik xususiyatlar majmuidir.



Pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining kasbiy faoliyatida markaziy o'rin egallaydi va ular pedagogika hamda pedagogik psixologiya fanlarida chuqur o'rganiladi. Ilmiy adabiyotlarda pedagogik qobiliyatlar o'qituvchining ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va ularning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Maxsus pedagogik qobiliyatlari ichida shundaylari ham borki, ularni aniq o'qituvchilik yoki tarbiyachilik faoliyatiga mansub deb ajratib bo'lmaydi. Negaki,



ular har ikkalasi uchun ham bir xilda zarurdir. Bu narsa - pedagogik muloqot, muomaladir. Psixolog olim V.A.Kan-Kalik bunday qobiliyatni tadqiq qilib shunday yozgan edi. Pedagoglik ishi o‘z tuzilishida ikki yuzdan ortiq tuzilmani tashkil qiladi. Muloqot uning eng murakkab tomonlaridan biridir, negaki u orqalipedagogik faoliyatning eng asosiy maqsadi - o‘qituvchi shaxsining o‘quvchi shaxsiga ta’siri amalga oshiriladi. Pedagogning muhim mahoratlaridan yana biri o‘quvchilar bilan uzoq va samarali ta’sir o‘tkazishni tashkil etishidir. Odatda bu mahoratni pedagogning kommunikativ qobiliyati bilan bog‘laydilar. Kasbiy pedagoglik muloqotiga ega bo‘lish - shaxslararo muloqotga tegishli bo‘lgan pedagog shaxsining muhim tomonidir [1].Pedagogika nazariyasiga ko‘ra, didaktik qobiliyat o‘qituvchining asosiy kasbiy sifatlaridan biri bo‘lib, u bilimlarni tizimli, izchil va tushunarli tarzda yetkazishni anglatadi. Bu yerda Didaktika tamoyillari — ilmiylik, tizimlilik va izchillik muhim rol o‘ynaydi. Masalan, o‘qituvchi yangi mavzuni oddiydan murakkabga tamoyili asosida tushuntirsa, o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshadi.

Kommunikativ qobiliyat pedagogik psixologiyada muhim tushunchalardan biri bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi samarali muloqotni ifodalaydi. Bu jarayon Pedagogik muloqot orqali amalga oshadi. Masalan, o‘qituvchi o‘quvchilar bilan dialogik uslubda ishlasa, ularning fikrlashi va nutqi rivojlanadi. Bu esa Vygotskiy ta’kidlagan ijtimoiy o‘rganish jarayoniga mos keladi.

Tashkiliy qobiliyat pedagogika fanida darsni samarali tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lib, bu Pedagogik jarayonni boshqarish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Masalan, darsni to‘g‘ri rejalashtirgan o‘qituvchi vaqtni tejaydi va barcha o‘quvchilarni jarayonga jalb etadi.

Perseptiv qobiliyat pedagogik psixologiyada o‘quvchining ichki holatini anglash bilan bog‘liq. Bu Empatiya tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan,



o‘qituvchi o‘quvchining qiyinchilikka duch kelganini sezib, unga yordam bersa, bu o‘quvchining o‘zlashtirishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Kreativ qobiliyat esa zamonaviy pedagogikada innovatsion yondashuvlar bilan izohlanadi. Bu Innovatsion ta’lim bilan bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchining yangicha metodlarni qo‘llashini anglatadi. Masalan, interfaol metodlar orqali o‘tilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshiradi va bilimni mustahkamlaydi.

Shuningdek, pedagogik psixologiyada o‘quvchilarning bilish jarayoni — diqqat, xotira va tafakkur kabi psixik jarayonlar bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. O‘qituvchi ushbu jarayonlarni hisobga olib dars o‘tsa, ta’lim samaradorligi yanada ortadi. Bundan tashqari pedagog ajratib olingan guruhlarda bilimni o‘zlashtirishda interaktiv metodlardan foydalanib darsni tashkil qilganda yuqori samaradorlikka erishganligiga ko‘plab misollar keltirish mumkin. Xususan, ixtisoslashgan maktablarda o‘quvchilarning qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirish imkoniyati mavjud. Masalan, matematika yo‘nalishidagi ixtisoslashgan maktabda o‘qiyotgan o‘quvchi oddiy maktab dasturidan tashqari murakkab masalalar, mantiqiy topshiriqlar bilan shug‘ullanadi. Natijada uning analitik tafakkuri rivojlanadi va u olimpiadalarda yuqori natijalarga erishadi. Bu esa ta’lim samaradorligining aniq ko‘rsatkichidir.

Umuman olganda, pedagogik qobiliyatlar pedagogika va psixologiya fanlarining integratsiyasi asosida shakllanadi. Ular o‘qituvchining kasbiy mahoratini belgilaydi va ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Pedagogik qobiliyatlarni muntazam mehnat, o‘z ustida ishlash va kasbiy tajriba orqali rivojlantirib borish lozimdir.

#### 4. MUHOKAMA

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, bir xil o‘quv dasturi va sharoitlarda ham o‘qituvchilarning pedagogik yondashuvi turlicha bo‘lgani sababli o‘quvchilarning



bilim o'zlashtirish darajasi sezilarli farq qiladi. Bu holat pedagogik qobiliyatlarning nafaqat nazariy tushuncha, balki amaliy faoliyat samaradorligini belgilovchi omil ekanini tasdiqlaydi. Zamonaviy ta'lim talablariga mos ravishda interfaol metodlar, individual yondashuv va psixologik qo'llab-quvvatlash yetarli darajada qo'llanilganda esa o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Demak, pedagogik qobiliyatlarni rivojlantirish ta'lim sifatini oshirish bilan birga, ta'lim jarayonini zamonaviylashtirishning ham muhim sharti hisoblanadi.

#### XULOSA:

Pedagogik qobiliyatlarni ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular o'qituvchining bilim berish jarayonini qanchalik to'g'ri, tushunarli va tizimli tashkil etishini belgilaydi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kommunikativ, didaktik, tashkiliy va psixologik qobiliyatlari rivojlangan bo'lsa, o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasi oshadi, ularning mustaqil fikrlashi va amaliy ko'nikmalari shakllanadi. Shu bois, pedagogik qobiliyatlarni ta'lim sifatini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.

Shu munosabat bilan, ta'lim samaradorligini yanada oshirish uchun o'qituvchilarning kasbiy mahoratini doimiy rivojlantirib borish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga keng joriy etish hamda o'quvchilarga individual yondashuvni kuchaytirish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, tajriba almashish tizimini yo'lga qo'yish ham ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.A.do'stmuhamedova, X.A.Tillashayxova, G.Baykunosova, G.Ziyavitdinov a. UMUMIY PSIXOLOGIYA 2- kitob ( Yosh davrlari va pedagogik psixologiya) Toshkent - 2020.



2. Mavlonova R., Vohidova N. Pedagogika. Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
3. Davletshin M.G. Psixologiya va pedagogika asoslari. Toshkent: O‘zbekiston, 2015.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi materiallari.
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent, 2022.